




# FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI  
2024-YIL YANVAR-IYUN  
(DASTLABKI MA'LUMOT)





## Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 620 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 758 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 11,5 %i) Qo'qon shahriga, 720 tasi (10,9 %) Farg'ona shahriga, 592 tasi (8,9 %) Marg'ilon shahriga, 491 tasi (7,4 %) Uchko'prik tumaniga va 396 tasi (6,0 %) O'zbekiston tumaniga to'g'ri kelmoqda.


Shahar, tuman nomi	2024-yil 1-iyul holatiga korxonalar soni (birlik)		
	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi, % da
<b>Jami:</b>	<b>6 620</b>	<b>729</b>	<b>100,0</b>
Farg'ona sh.	720	71	10,9
Qo'qon sh.	758	53	11,5
Quvasoy sh.	190	27	2,9
Marg'ilon sh.	592	59	8,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	308	31	4,7
Qo'shtepa	266	61	4,0
Bag'dod	329	53	5,0
Buvayda	272	31	4,1
Beshariq	187	18	2,8
Quva	293	37	4,4
Uchko'prik	491	45	7,4
Rishton	347	49	5,2
So'x	199	18	3,0
Toshloq	282	30	4,3
O'zbekiston	396	44	6,0
Farg'ona	257	39	3,9
Dang'ara	371	27	5,6
Furqat	163	23	2,5
Yozyovon	199	13	3,0




## Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari













Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 19 080,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 108,7 % ni tashkil etdi.

Yanvar-iyun  
mlrd.so'm



Yanvar-iyun  
FHI, %da



Farg'ona sh.	5 262,0		103,1
Qo'qon sh.	3 269,8		109,4
Quvasoy sh.	763,0		101,2
Marg'ilon sh.	963,7		108,6
Oltiariq	444,9		110,1
Qo'shtepa	1 056,4		109,5
Bag'dod	520,7		102,7
Buvayda	543,3		110,4
Beshariq	630,4		107,4
Quva	358,5		104,0
Uchko'prik	1 775,9		108,8
Rishton	183,3		104,2
So'x	63,6		103,1
Toshloq	908,7		110,2
O'zbekiston	612,1		109,5
Farg'ona t.	649,4		106,6
Dang'ara	586,0		106,5
Furqat	322,0		108,6
Yozyovon	166,7		109,5


mlrd.so'm

FHI, %da


## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg'ona shahrida (16 273,9 ming so'm), Qo'qon shahrida (10 561,5 ming so'm), Quvasoy shahrida (7 506,1 ming so'm) hamda Uchko'prik tumanida (7 316,1 ming so'm) ni tashkil etmoqda.

Yanvar-iyun  
ming.so'm



Yanvar-iyun  
o'sish sur'ati %da



Farg'ona sh.	16 273,9	100,9
Qo'qon sh.	10 561,5	107,8
Quvasoy sh.	7 506,1	99,0
Marg'ilon sh.	3 786,3	105,7
Oltiariq	1 938,5	107,8
Qo'shtepa	5 047,7	107,2
Bag'dod	2 223,7	100,5
Buvayda	2 186,7	107,9
Beshariq	2 587,9	105,4
Quva	1 295,2	102,1
Uchko'prik	7 316,1	106,4
Rishton	841,5	102,1
So'x	755,3	100,8
Toshloq	4 157,6	108,6
O'zbekiston	2 579,9	106,9
Farg'ona t.	2 918,8	104,4
Dang'ara	3 291,6	103,9
Furqat	2 521,9	106,3
Yozyovon	1 385,5	107,3

ming.so'm

o'sish sur'ati %da



*\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **17 664,4** mlrd.so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **92,6 %** ni, tashkil etdi.

Hajmi, mlrd. so'm




2024-yilning yanvar-iyun oylarida Viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Farg'ona shahri (27,6 %), Qo'qon shahri (17,1 %), Uchko'prik tumani (9,3 %), hamda Qo'shtepa (5,5 %) tumanlari hissasiga tog'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Buvayda tumanida (110,4%), Oltiariq tumanida (110,1%) hamda Qo'qon shahrida (109,4 %) kuzatildi.


FHI, %da



Ulushi, %da



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **55,9 mlrd. so‘m**ni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ini tashkil etdi.



### Yanvar-iyun

2022-y.	34,8 mlrd. so‘m
2023-y.	69,4 mlrd. so‘m
2024-y.	55,9 mlrd. so‘m

### FHI, %da

2022-y.	16,3%
2023-y.	183,3%
2024-y.	73,9%

## C seksiya

### Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **17 664,4 mlrd. so‘m**ni yoki jami sanoat mahsulotlarining **92,6 %** ini tashkil etdi.

### Yanvar-iyun

2022-y.	12 970,8 mlrd. so‘m
2023-y.	14 008,2 mlrd. so‘m
2024-y.	17 664,4 mlrd. so‘m

### FHI, %da

2022-y.	105,1%
2023-y.	104,0%
2024-y.	109,9%





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Dizel yoqilg'isi		Avtomobil benzini		Klinker sement	
2024	83,5	2024	85,1	2024	61,2
2023	2,3m.	2023	182,6	2023	27,0
2022	81,2	2022	82,8	2022	75,0
O'simlik yog'i (tozalangan)		Portlandsement		Yumshoq bug'doy va spelta uni	
2024	30,5	2024	64,4	2024	101,9
2023	56,1	2023	89,5	2023	75,4
2022	70,6	2022	93,3	2022	91,2
Neft bitumi		Aroq ming litr (100% spirt)		Uzum vinosi	
2024	68,9	2024	67,9	2024	2,8 m
2023	3,0m	2023	115,9	2023	76,0
2022	48,1	2022	55,3	2022	69,0
Karbamid		Paxta chigiti		Paxta linti	
2024	97,0	2024	100,1	2024	144,3
2023	107,1	2023	125,5	2023	97,3
2022	92,9	2022	162,7	2022	189,2

2024-yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 148,3 ming tonna avtomobil benzini (2023-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 14,9% ga kamaygan), 192,0 ming tonna dizel yoqilg'isi (16,5 %ga kamaygan), 76,8 ming tonna kalava ip mahsulotlari (22,9% ga ko'paygan) hamda 10 639,4 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (44,1%ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.




### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyun	2024-yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	174,2	148,3	-25,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	116,6	118,9	2,3
Paxta chigiti, ming t.	61,4	61,5	0,1
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	4,7	1,4	-3,3


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 10,1 % (2023-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 112,0%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 39,1% (2023-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 114,7 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,2% (2023-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 99,1%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,9 % (2023-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 110,0 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 %ni (2023-yilning yanvar-iyun oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 15,9 % (15,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 25,6% (22,3%) va quyi texnologiyalisi – 57,9% (55,1%)ni tashkil etdi.





## Metallurgiya sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati 131,9 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,7%ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 115,1 % ni tashkil etgan.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati 96,9 mlrd.soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,7%ni etdi oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,0 marta koʻpaygan.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,0 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,3 %ga koʻpaygan va ishlab chiqarish hajmi 2 123,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 12,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 99,3 % ni tashkil etgan.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,7 %ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,9 %ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 2 243,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 103,1 % ni tashkil etgan.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 20,9 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 81,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-iyun oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 130,0 % ni tashkil etgan.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,4 % ni tashkil etgan bo'lib, fizik hajm indeksi 10,7 % ga ko'paygan, ishlab chiqarish hajmi esa 5 189,3 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 90,7 % ni tashkil etgan.




## Kiyim ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,4 %, fizik hajm indeksi 133,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1 314,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 138,1 % ni tashkil etgan.




## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,6 % ni, fizik hajm indeksi 94,4 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1691,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 11,5 % ni fizik hajm indeksi esa 110,4 % ni tashkil etgan.


## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 5,2 % ni, fizik hajm indeksi 113,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 917,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,9 % ni fizik hajm indeksi esa 78,1 % ni tashkil etgan.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,3 % ni, fizik hajm indeksi 179,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 764,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni fizik hajm indeksi esa 137,4 % ni tashkil etgan.

### Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 132,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 223,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni fizik hajm indeksi esa 2,3 martaga ko'paygan.




### Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi 104,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 559,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni fizik hajm indeksi esa 113,6 % ni tashkil etgan.




### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 %, fizik hajm indeksi 29,4 %ga ko'paydi hamda ishlab chiqarish hajmi 650,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni fizik hajm indeksi esa 120,3 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 202,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,8% ini) tashkil etadi.


2024-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 415,4 mlrd. so'mga ko'payganligi kuzatildi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	167,7	156,1	-11,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	884,1	670,0	-214,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 157,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 %ini) tashkil etdi.



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	8,6	18,6	10,0
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	10,0	15,3	5,3


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 10,0 mlrd. so'm yoki 2,1 martaga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 5,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 53,2 %ga ko'paydi.

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5 118,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 26,8 %ni tashkil etdi.

### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da

2023-yil yanvar-iyun




2024-yil yanvar-iyun



### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd.so‘m)da

2023-yil yanvar-iyun




2024-yil yanvar-iyun




## Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 502,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 49,8 % ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 44,5 % ni tashkil etgan.


*Sanoat ishlab chiqarish hajmi,  
yanvar-iyun mlrd. soʻmda*



*Kichik tadbirkorlik subyektlarining  
jami sanoat ishlab chiqarish  
hajmidagi ulushi*



*jami sanoat ishlab chiqarish  
hajmidagi ulushi %da*



Fargʻona sh.	1 457,0	27,7
Qoʻqon sh.	1 591,4	48,7
Quvasoy sh.	392,6	51,5
Margʻilon sh.	926,9	96,2
Oltiariq	272,0	61,1
Qoʻshtepa	134,3	12,7
Bagʻdod	404,9	77,8
Buvayda	397,4	73,1
Beshariq	514,6	81,6
Quva	216,0	60,3
Uchkoʻprik	1 189,7	67,0
Rishton	119,6	65,2
Soʻx	63,6	100,0
Toshloq	363,5	40,0
Oʻzbekiston	335,0	54,7
Fargʻona t.	147,2	22,7
Dangʻara	488,5	83,4
Furqat	322,0	100,0
Yozyovon	166,7	100,0

*Ishlab chiqarish  
hajmi, mlrd.soʻmda*

*Jami hajmdagi  
ulushi, %da*



## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

**Mahalliyashtirish darajasi** – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to‘lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo‘lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi.

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘shish sur‘atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 153 ta loyiha bo‘yicha 1 523,3 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 20,5 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 511 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

